



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

XALQARO ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI

TO'PLAMI
2-QISM



26-27-SENTABR
2025-YIL



Google
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK
TEXNOLOGIYALARI**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2025-yil 26-27-sentabr)
2-QISM

JIZZAX-2025

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2025-yil 26-27-sentabr. 368-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma'ruza tezlari to'plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas'ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay'ati a'zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O'ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo'rayev M.M.

Mazkur to'plamga kiritilgan ma'ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

EKSPORT VA IMPORT FAOLIYATINING IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI: NAZARIY VA EMPIRIK TAHLIL

Mamamayusupova Xusniya Djuraevna

Ilmiy tadqiqotchi

khushniyamamayusupova@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada eksport va import faoliyatining iqtisodiy o‘rishga ta’siri nazariy va empirik jihatdan tahlil qilindi. Qolaversa, O‘zbekiston misolida eksport hajmining o‘rishi iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta’sir qilgani, ammo importning tez sur’atda o‘rishi tashqi savdo balansida salbiy oqibatlar keltirib chiqargani ko‘rsatildi. Asosiy muammolar sifatida eksport tarkibining torligi, logistika va moliyalashtirishdagi qiyinchiliklar hamda importga qaramlik ko‘rsatildi.

Kalit so‘zlar: Eksport, import, iqtisodiy o‘rish, O‘zbekiston iqtisodiyoti, tashqi savdo, logistik infrotuzilma, milliy iqtisodiyot.

Bugungi globallashuv jarayonida davlatlar iqtisodiy o‘rish va rivojlanishni ta’minlashda tashqi iqtisodiy faoliyatga katta e’tibor qaratmoqda. Xususan, eksport va import operatsiyalari mamlakatning ichki ishlab chiqarish salohiyatini, valyuta tushumlarini, texnologik darajasini va iste’mol bozorini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi. Eksport orqali mamlakatlar ichki ishlab chiqarilgan mahsulotni tashqi bozorga olib chiqib, xorijiy valyutani jalb qiladi, bu esa ularning to‘lov balansiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Import esa asosan texnologiyalar, uskunalar, xomashyo va iste’mol mahsulotlari shaklida ichki ehtiyojni qondirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, tashqi savdo iqtisodiy o‘rishning muhim drayverlaridan biri sifatida qaraladi.

Eksport — bu mamlakat ichida ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning xorijiy davlatlarga pullik asosda sotilishi jarayonidir. Import esa, aksincha, boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning ichki bozorga olib kirilishi bilan bog‘liq. Tashqi savdo (ya’ni eksport va importning yig‘indisi) milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Eksport orqali mamlakatlar xorijiy valyuta tushumiga ega bo‘ladi; mahsulotlarini yangi bozorga olib chiqadi; ishlab chiqarishni kengaytiradi; raqobatbardoshlikni oshiradi. Import esa ichki ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi; yangi texnologiyalar, bilimlar va innovatsiyalar kirib kelishini ta’minlaydi; raqobat muhitini kuchaytiradi [2].

Hozrigi kunga kelib ko‘pgina empirik tadqiqotlar eksport va importning iqtisodiy o‘rishga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Jumladan:

- eksport o‘rishi ichki ishlab chiqarish hajmini oshiradi, yangi ish o‘rinlari yaratadi;
- import orqali kirib kelgan texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi;
- tashqi savdo balansi mamlakatning valyuta kursi va inflyatsiyaga ham ta’sir qiladi;
- savdo ochiqligi (trade openness) – global raqobatda ishtirok etish orqali o‘rish sur’atlarini tezlashtiradi. Shu bois, iqtisodiy o‘rishni barqaror ta’minlashda tashqi

savdo siyosati, xususan eksportni rag'batlantirish va import tuzilmasini maqbullashtirish muhim ahamiyat kasb etadi [3].

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikdan so'ng bosqichma-bosqich tashqi savdo siyosatini shakllantirib bordi. Ayniqsa, 2017-yildan boshlab mamlakatda iqtisodiy islohotlarning faollashuvi va ochiq iqtisodiy siyosatga o'tilishi eksport-import operatsiyalarining keskin oshishiga olib keldi. Bugungi kunga kelib, O'zbekistonning tashqi savdosida eksport hajmi barqaror o'smoqda, biroq import hajmi yanada tezroq sur'atlarda ortib bormoqda. Bu holat mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga turli yo'nalishlarda ta'sir ko'rsatmoqda [5].

So'nggi yillarda eksport tarkibida asosan oltin, gaz, paxta mahsulotlari, meva-sabzavot, to'qimachilik mahsulotlari va avtomobillar asosiy o'rinni egallab kelmoqda. Eksport hajmi 2015-yildagi 12 milliard dollardan ortiq bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 20 milliard dollardan oshdi. Bu o'sish O'zbekiston yalpi ichki mahsulotida (YAIM) eksport ulushining 18 foizdan 24 foizgacha oshishiga olib keldi. Ushbu ko'rsatkich eksportning iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi. Eksport darajasining oshishi bilan birga ishlab chiqarish hajmi ham ko'paygan, yangi ish o'rinlari yaratilgan, xorijiy valyuta tushumlari ortgan. Biroq, import hajmi eksportga nisbatan tezroq o'sdi. 2015-yilda import hajmi 11 milliard dollar atrofida bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu raqam 29 milliard dollarga yetdi. Import tarkibini asosan uskunarlar, texnologiyalar, transport vositalari, farmatsevtika va oziq-ovqat mahsulotlari tashkil etadi. Importning iqtisodiy o'sishdagi roli shundaki, u ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni jalb etish va ichki talabni qondirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, import hajmining ortib borishi tashqi to'lovlar bosimini kuchaytiradi va iqtisodiy xavfsizlik masalasini kun tartibiga olib chiqadi [1].

2017-yildan boshlab O'zbekiston tashqi savdo balansida salbiy saldo kuzatilmoqda. Import hajmining eksportdan oshib ketishi natijasida to'lov balansida defitsit vujudga kelgan. Bu holat milliy valyuta kursining bosim ostida qolishiga, inflyatsion xavflarning oshishiga olib kelishi mumkin [5].

Empirik tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, eksport o'sishi iqtisodiy o'sish bilan ijobiy bog'liq, ayniqsa, eksport darajasi YAIMning muhim qismini tashkil etgan yillarda iqtisodiy o'sish sur'atlari nisbatan yuqori bo'lgan. Import esa qisqa muddatli o'sishni rag'batlantirgan bo'lsa-da, uzoq muddatli davrda yuqori importga bog'liqlik iqtisodiyotning tashqi omillarga nisbatan zaifligini oshirgan. Shu sababli, O'zbekistonda eksport salohiyatini diversifikatsiya qilish, xomashyo eksportidan qayta ishlangan, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarga o'tish, shuningdek, import o'rnini bosuvchi milliy mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish bugungi kunda ustuvor vazifalardan biridir [7].

Bugungi kunda O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatni liberallashtirish bo'yicha sezilarli qadamlar tashlagan bo'lsa-da, eksport faoliyatida hali ham qator tizimli muammolar mavjud:

1. Eksport tarkibining torligi va xomashyo mahsulotlariga qaramlik: Eksportning katta qismini hali ham oltin, paxta, gaz va boshqa xomashyo tashkil qiladi. Yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar eksporti past darajada.

2. **Logistika va infratuzilma muammolari:** Transport tizimi, ayniqsa temir yo‘l va chegara punktlarida yuklarni tez va arzon yetkazib berish imkoniyatlari cheklangan.

3. **Standartlashtirish va sertifikatlashdagi to‘siqlar:** O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan ko‘plab mahsulotlar xorijiy bozorlarga chiqishda xalqaro sifat standartlariga to‘liq mos kelmasligi muammoli bo‘lib qolmoqda.

4. **Bozor diversifikatsiyasining yetarli emasligi:** Eksport asosan bir nechta davlatlarga (Xitoy, Rossiya, Turkiya) yo‘naltirilgan, bu esa tashqi siyosiy yoki iqtisodiy tebranishlarga zaiflik keltirib chiqaradi.

5. **Eksport qiluvchi korxonalar uchun moliyalashtirish va sug‘urta tizimining zaifligi:** Ko‘plab kichik va o‘rta biznes subyektlari eksport qilish imkoniyatiga ega bo‘lsa-da, moliyaviy resurslar yetishmasligi bu imkoniyatlardan foydalana olishga to‘sqinlik qiladi.

Qolaversa, O‘zbekiston iqtisodiyotida nafaqat eksportda, balki import faoliyatidagi muammolar ham anchagina. Masalan:

1. **Yuqori import hajmi va iqtisodiy qaramlik:** Import hajmining eksportdan yuqoriligi tashqi bozorlar va valyuta tushumlariga bog‘liqlikni oshiradi.

2. Ichki ishlab chiqaruvchilarning raqobatga dosh bera olmasligi: Arzon va ko‘p miqdordagi import mahsulotlar mahalliy ishlab chiqaruvchilarni bozorning bir qismini yo‘qotishga majbur qiladi.

3. Import tarkibining notekisligi: Ko‘plab tovarlar (hatto oddiy iste‘mol mahsulotlari) ham import orqali kirib kelmoqda, bu esa ichki ishlab chiqarish imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayotganini ko‘rsatadi.

4. Valyuta kursidagi o‘zgaruvchanlik: Import mahsulotlarining narxi bevosita milliy valyuta kursiga bog‘liq bo‘lgani uchun, kursdagi har qanday tebranish narxlar barqarorligiga ta’sir qiladi.

Eksport va import faoliyati har qanday davlat iqtisodiyotining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Tashqi savdoning hajmi, sifati va tuzilmasi mamlakatning iqtisodiy o‘sish sur‘atlari, barqarorligi hamda global iqtisodiyotdagi raqobatbardoshligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada eksport va import faoliyatining iqtisodiy o‘sishga ta’siri nazariy va empirik asosda tahlil qilindi. Nazariy jihatdan, klassik va zamonaviy iqtisodiy nazariyalar eksport va import faoliyatining ijobiy ta’sirini ta’kidlab keladi. Eksport ichki ishlab chiqarish va valyuta tushumlarini oshiradi, yangi ish o‘rinlari yaratadi, ishlab chiqarish samaradorligini rag‘batlantiradi. Import esa texnologiyalar, xomashyo va tayyor mahsulotlar orqali ichki bozorni to‘ldiradi, ishlab chiqarish jarayonlarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi. *Tashqi savdo faoliyati bo‘yicha statistik ma’lumotlar*, 2024. <https://stat.uz>

2. Abdullaev S. Eksport-import faoliyatining milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi roli. *Iqtisodiyot va moliya jurnal*, 2020.

3. Rasulov J. *O‘zbekiston tashqi savdo siyosati va eksport salohiyati*. Toshkent: Iqtisodiy Tadqiqotlar Markazi, 2019.

4. Salimov D. Tashqi savdo balansining iqtisodiy o'sishga ta'siri: O'zbekiston misolida. *Milliy Iqtisodiyot Jurnali*, 2021.
5. Asian Development Bank (ADB). *Economic Outlook for Central Asia*, 2023.
6. Qodirov M., Islomov B. Logistika infratuzilmasining rivojlanishi va eksport imkoniyatlari. *Transport va logistika*, 2022.

FORMS OF PROVIDING LOANS TO SMALL BUSINESSES

G'aybullayev Sarvar

Jizzakh branch of National university of Uzbekistan

Abstract: this article serves small business and business entities show, with the expansion of production in small business entities their technical repair, material and technical support, storage of products, range of services such as operation and sales, communication and communication, consulting and information information about types is presented.

Keywords: infrastructure, small business, market infrastructure, technological park, business center, auditing company, business school, private banks, real sector, permanent, conditional-permanent and variable.

Regardless of the different forms of ownership, enterprises have sources of income in the form of taxes paid to the state and local budgets in accordance with the Law of the Republic of Uzbekistan "On Taxes from Enterprises, Associations and Organizations" and the Decisions of the Cabinet of Ministers "On Improving the Tax System to Encourage the Production of Consumer Goods" specified. The purpose of the introduction of these taxes is to regulate the business activities of the state social guarantees, to encourage the economical use of natural resources and the protection of the environment.

Transfer of money to the account of property owners should be done within 4 working days within the city, within 5 working days within the region, within 10 working days within the republic. If the terms of this law are violated, the bank will pay a fine in the amount of annual interest to the client. The bank carries out operations related to the clients according to their application. Banks inform entrepreneurs about changes in regulations introduced by the Central Bank of the Republic, especially regarding cashless operations on accounts.

Currency transactions are carried out by comparing the ratio of the currencies of the two parties at the exchange rate. This information is important in the economic activity of entrepreneurs. The main place in currency transactions is occupied by loans, securities, buying and selling of currency for profit. Current owners of small and private property in the course of business can purchase foreign currency freely by obtaining the right to have a currency account-book number. Entrepreneurs also have the right to freely buy foreign currency as a result of their trade with foreign companies and entrepreneurs.